


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**70530503 – Elektronika
magistratura mutaxassisligining**

MALAKA TALABI

Toshkent – 2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti;
O‘zR FA U.A.Arifov nomidagi Ion – plazma va lazer texnologiyalari instituti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024 yil «01» 08 dagi 277 - sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. “Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. Umumiy tavsifi	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari	5
2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar	7
3. Ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar	9
4. Fanlar katalogining tuzilishi	9
Bibliografik ma'lumotlar.....	11
Kelishuv varag'i	12

1. Umumiy tavsifi

70530503 – Elektronika magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrler tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **70530503 – Elektronika** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrler tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv va magistratura bo'limi boshliqlari, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari.

70530503 – Elektronika "Fizika va tabiiy fanlar" ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek elektronika, elektron texnika, elektron asboblar va ularning strukturasi, texnologiyasi, elektron texnika materiallarini ishlab chiqarish texnologiyalari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda, turli xil maqsadlarga mo'ljalangan elektron sxemalar, sxemotexnikasi va fizikasini o'rganish bilan bog'liq sohalarni, vakuum fizikasi va texnikasi, qotishmalar fizikasi, katodlar fizikasi, elektron mikroskopiyasi, skanerlovchi elektron

mikroskoplar, tunel mikroskoplar, yangi turdag'i elektron qurilmalar va asboblar ishlab chiqarish korxonalarini va shu soha bilan bevosita faoliyati bog'liq bo'lgan nodavlat tashkilotlar va davlat ilmiy tadqiqot muassasalarini, mutaxassislikka oid kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarini;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tekshirish institutlari hamda oliy o'quv yurtlarining ilmiy-tadqiqot bo'limlari;

ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog'liq akademik, ilmiy tadqiqot muassasalarini;

davlat boshqaruvi va uning turli hududiy bo'linmalarini;

integral mikrosxemalar, tranzistor, diodlar, kondensator va rezistorlar ishlab chiqarish korxonalarini;

Quyosh ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi;

xom ashyolar tarkibini analiz qiluvchi kombinatlar;

qiyin eruvchan metallar ishlab chiqarish korxonalarini;

vakuum texnikasi qo'llaniladigan korxonalar.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

ilmiy tadqiqot faoliyati;

pedagogik faoliyat;

loyihaviy-konstrukturlik-texnologik faoliyat;

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati.

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

70530503 – Elektronika mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishslash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish;

ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish;

internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstrukturlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda unda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish;

o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim*.

ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish qobiliyatiga ega bo'lishi;

yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim*.

Pedagogik faoliyatida:

oliy ta'lif muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib bakalavriat va magistratura o'quv rejalarida o'zlashtirilgan fanlar doirasida nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtiroy etish, ma'lumotlarni toplash, umumlashtirish va tahlil etish;

o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallashi;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta'lif va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va boshqa sohalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish;

uzluksiz ta'lif tizimining Davlat ta'lif standartlari, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim*.

Loyihaviy-konstrukturlik-texnologik faoliyatida:

muammolarini chuqur nazariy tahlil qilish, masalalarni qo'yish va asoslash qobiliyatiga ega bo'lishi;

kerakli emission, elektrofizik, optik xarakteristikalarga ega materiallar tayyorlash texnologiyalarini bilish;

nanoqatlamlar fizik, ximik va katalitik xususiyatlarini o'rganish va boshqarishni bilish;

quyosh batareyalari, yadro energetikasi, uchish aparatlarida qo'llaniladigan materiallar yaratish va mavjudlarini samaradorligini oshorishni bilish;

bajarilayotgan tajriba-konstrukturlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion shuningdek, imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiq qilish;

na'munaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

ilmiy-amaliy faoliyatda modellashtirilgan va avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari, muhitlarini rivojlantirish, ulardan foydalanish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

ilmiy-amaliy loyihalar biznes-rejalarini ishlab chiqish va optimallashtirish.

Tashkiliy-boshqaruva faoliyatida:

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanib ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

ish rejasini tuzish va uni bajarilishini nazorat qilish, zarur resurslarni rejalashtirish va ular bilan ta'minlash, o'z ishining natijalarini baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligini talablariga mosligini monitoring qilish;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim*.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

ishlab chiqarish faoliyati natijalari bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishslash usullaridan foydalanish va monitoringini olib borish;

fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq etish;

iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash;

ishlab chiqarish korxonalarida loyihalash-texnologik ishlarini o'rganish, tahlil qilish, ishlab chiqish va qo'llash;

ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish;

amaliy faoliyatda instrumental vositalarni va ishlab chiqarish muhitini takomillashtirish;

mutaxassislik bo'yicha ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha texnologik yechimlar prognozini ishlab chiqish;

magistr ixtisosligiga mos mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashish;

pullik ta'llim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim*.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishslashning asosiy usullari va vositalaridan foydalana olishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishslash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi; ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi; ilmiy faoliyat olib borishni maqsadli tashkil etishi, mahalliy va xorijiy grantlar tanlovlariada ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi;

patent olish uchun me'yoriy ish hujjatlarini tayyorlay olishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan tanlovlarda ishtirok etish uchun ilmiy loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

magistratura mutaxassisligi bo'yicha ob'ektlar va jarayonlarning namunaviy modellari va ularni tadqiq qilish metodikalarini o'rganish;

zamonaviy ko'p funksiyali eksperimental qurilmalarda ishlash, ularni boshqarish va maqsadli tajribalarni o'tkaza olishi;

vakuum texnikasini ishlatishni bilish;

o'ta yuqori vakuum olish tajribalariga ega bo'lish;

skanerlovchi va tunel miroskoplarida ishlash;

qattiq jism sirtini tahlil qilishning eng zamonaviy usullarini bilish;

mavjud nazariya va modellarni amaliyatga qo'llash tajribasiga ega bo'lish;

eksperimental tadqiqotlarni bajarishda qo'llaniladigan qurilmalar, materiallar, zamonaviy asboblar va boshqa jihozlarni o'rganish va bayon qilish;

AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ZAMONAVIY VOSITALARIDAN FOYDALANIB ILMIY-TADQIQOTLARNI O'TKAZISH;

eksperimental tadqiqotlar natijalariga ishlov berish, ularni tahlil qilish va aks ettirish, xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash, tavsiyalarni ishlab chiqish;

mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini shakllantirish;

FAN, TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARINENG YANGI YUTUQLARIGA ASOSLANGAN AXBOROT BAZALARINI QO'LLAY BILISH, ULARDAN MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINI BAJARISHDA FOYDALANISH;

ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN, O'QUV-TARBIYA VA TA'LIM OLISH JARAYONINI AMALGA OSHIRISHNING INTERAKTIV USULLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA PEDAGOGIK FAOLIYAT MAHORATI VA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH;

O'QUV JARAYONINI ILMIY-USLUBIY JIHATDAN TA'MINLASHNI TASHKIL ETISH, O'QUV VA KO'NIKMALARINI HOSIL QILISHI LOZIM;

shuningdek:

maxsus fanlarni o'qish va o'rganishning har xil turlari: ma'ruzalar, laboratoriya ishlari, amaliy va boshqa mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha stajirovka.

3. Ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy faoliyat ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lif muassasalarida mikroelektronika

sohasidagi ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilishga bo'lgan talablar:

mustaqil tadqiqotchilik faolyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi;

axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish;

talabalarga soha bo'yicha fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

Ilmiy pedagogik ishlar:

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirish;

o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish):

Magistrlar tayyorlashda ilmiy amaliyot 4-semestrda o'tkaziladi. Bunda soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish; fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish; sohaga tegishli amaliy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish; kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta'minlashi lozim. Bunda tajriba ilmiy amaliyotga yuborilgan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko'zda tutiladi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1080	36	
1.01	ILTM1106	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	180	6	1
1.02	MFOM1106	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	180	6	1
1.03	VFTE1106	Vakuum fizikasi va texnikasi	180	6	1
1.04	KFUT1206	Katodlar fizikasi va ularning texnologiyasi	180	6	1
1.05	ETIE1206	Elektronlar va ionlar emissiyasi	180	6	2
1.06	QJSF1206	Qattiq jism sirt fizikasi	180	6	2
2.00		Tanlov fanlar	720	24	2,3
		Jami	1800	60	
	Kvalifikatsiya	Elektronika bo'yicha fizik, pedagog-tadqiqotchi			
3.00		Ilmiy faoliyat	1800	60	
3.01		Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti	600	20	1,2,3,4
3.02		Ilmiy tadqiqot ishi, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish	1200	40	1,2,3,4
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7
OKS

Guruh T55

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, mikroelektronika, hisoblash texnikasi, robototexnika, mikroprotsessorlar, integral mikrosxemalar, tranzistorlar, diodlar, kondensatorlar, rezistorlar, ta'lif yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jahbasi, magistrantning asosiy o'quv reja va fan dasturi (magistrant dasturi), profil, o'qib-o'rghanish natijalari, o'quv sikli, ilmiy-tadqiqot, avtomatika, kibernetika, radiotexnika, hisoblash texnikasi, o'ichov asboblari texnikasi, elektron apparatlarining murakkab shakli texnologiyasi, nanostrukturalar, mikro- va nanoelektronika, planar texnologiya va elektron sxemalarni murakkab shakli, kredit-modul tizimi, o'quv rejasi, fan dasturi.

Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari hamda kadrlar
iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti

Rektor  I. Madjidov

202_ yil «____» _____
M.O.

O'zR FA U.A.Arifov nomidagi Ion – plazma
va lazer texnologiyalari instituti




KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi
shuaroqidagi Oliy ta'limi rivojlantirish
vazirligi markazi



Guliston davlat universiteti

Rektor  M.Xodjiev


202_ yil «____» _____
M.O.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti



G. Muxamedov

O'zR FA S.A.Azimov nomidagi «Fizika-
Quyosh» IIChB Fizika - texnika instituti



X. Olimov

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
70530503 – Elektronika magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari va
o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy
kadrlar iste’molchilari o‘rtasida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“_” 2024 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O‘zR FA U.A.Arifov nomidagi Ion – plazma va lazer texnologiyalari instituti direktori X.Ashurov, Guliston davlat universiteti rektori M.Xodjiyev, Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori G. Muxamedov, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti rektori I.Madjidov birgalikda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70530503 – Elektronika magistratura mutaxassisligining Malaka talablari hamda o‘quv rejasini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909сон, 2017 yil 27 iyuldagagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-сон. 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-сон qarori hamda O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2024 yil 20 maydagagi “O‘z DSt 3557:2021 “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘ylgan talablar ham inobatga olingan.

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatalgan startijbda tasdiqqa tавсиya etish mumkin.

O‘zR FA U.A.Arifov nomidagi Ion – plazma
va lazer texnologiyalari instituti direktori

Guliston davlat universiteti rektori

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy universiteti rektori

X.Ashurny

M.Xodjiyev

G.Muxamedov

I.Madjidov